



## **XALQ DEPUTATLARI YUQORI CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING Q A R O R I**

2022 - yil 28 - sentabr

VI-55-76-10-145-K/22

Yuqorichirchiq tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga ko‘ra “g‘olib” takliflarni tanlab olish hamda ularga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli hamda 2022 yil 20 sentyabrdagi KQ-406-IV-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil etish maqsadida yuqoridagi qarorlardan kelib chiqqan holda, Xalq deputatlari tuman Kengashi

### **Q A R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli hamda 2022 yil 20 sentyabrdagi “Tuman (shahar) budgetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-406-IV-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman bo‘yicha 2022 yilda 2 mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha tanlov g‘oliblari manzilli ro‘yhati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiya a‘zolari o‘z xulosalariga asosan, Moliya Vazirligining 2021 yil 6 sentyabrdagi WV82767631-sonli xatining ilovasiga muvofiq tuman fuqarolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha berilgan

qo'llanma talablari asosida, eng ko'p ovoz olgan, 3 ta takliflar;

Jumladan;

*1-taklif 5 415 ta* ovoz to'plagan, (ID:1920600064), Yuqori Chirchiq tumani Nurli yo'l MFYda To'qimboy 1 va 3 chi tor ko'chasiga 300,0 m, Chegara ko'chasiga 400,0 m, Samsarak ko'chasiga 450,0 m, Marvarid ko'chasiga 350,0 m, Yangi maqsad ko'chasiga 1100,0 m, Xonariq ko'chasiga 210,0 m, va Javoxir ko'chasiga 550,0 m joyga asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **1 200,0 mln.so'm**,

*2-taklif 5 283 ta* ovoz to'plagan, (ID:1920600124) Yuqori Chirchiq tumani Qangli MFY xududida joylashgan №22 sonli umumiy o'rta ta'lim maktabning 1 ga yer maydonidagi sport majmuasini ta'mirlash atrofini zamonaviy to'siqlar bilan o'rash, tomoshabinlar o'tirishga o'rindiqlar o'rnatish va aylana yugurish yo'lakchalarini qurish, zamonaviy kichik futbol maydonchasi, Voleybol va Basketbol maydonlarini tashkil etish taklifi. Taklif qiymati **1 200,0 mln.so'm**,

*3-taklif 3 396 ta* ovoz to'plagan, (ID:1920600090) Yuqori Chirchiq tumani Taraqqiyot MFY Yanginur ko'chasini 300,0 m, Oromgoh ko'chasini 1000,0 m, Ezgulik ko'chasini 400,0 m, Sayilgoh ko'chasini 200,0 m, Lolazor ko'chasini 400,0 m, Muvozanat ko'chasini 200,0 m qismiga asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **1 200,0 mln.so'm**,

Yuqoridagilarga asosan tuman bo'yicha g'olib deb topilgan 3 ta umumiy qiymati **3 600,0 mln.so'm** bo'lgan takliflar tasdiqlangan manzilli ro'yxati ijro uchun qabul qilinsin va talab etiladigan mablag' belgilangan tartibda yo'naltirilishi belgilansin.

4. Tasdiqlangan manzilli ro'yxat asosida:

Tuman Moliya bo'limi (B.Ibragimov) va tuman G'aznachilik bo'linmasi (A.Mirzakulov) ushbu qarorga muvofiq "g'olib" deb topilgan takliflarga, jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarda ochilgan mahsus xisob raqamiga mablag'lar yo'naltirilsin.

5. Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari (Sh.Xudaybergenov) hamda buyurtmachi tashkilotlar, belgilangan tartibda qurilish va ta'mirlashga oid tender tanlovlarini tezkorlikda odilona o'tkazilishini tashkillashtirsin.

6. Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyixa-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruxiga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

7. Tuman axborot xizmati (U.Qodirova ) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 25 sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish to'g'risidagi hisobotlarni tuman rasmiy veb saytiga joylashtirib borilishini ta'minlasin.

8. Mazkur karor ijrosini nazorat qilish, Xalq deputatlari tuman Kengashining

mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Tastanbekov) zimmalariga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**U.Atemov**

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tuman Kengashining  
2022 yil 28 sentabrdagi  
VI-55-76-10-145-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Yuqori Chirchiq tumani bo'yicha 2022 yil 2 mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllangan  
tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT**

*mln. so'mda*

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, Budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni				
<b>"Fuqarolar tashabbusi jamgarmasi" da shakllangan mablag'</b>						x	x
1	1920600064	Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Nurli yo'l MFYda 2022 yil obod qishloq dasturiga kirmagan ko'chalar bular To'qimboy 1 va 3 chi tor ko'chasiga 300 m, Chegara ko'chasiga 400 m, Samsarak ko'chasiga 450 m, Marvarid ko'chasiga 350 m, Yangi maqsad ko'chasiga 1100 m, Xonariq ko'chasiga 210 m, va Javoxir 550 metr joyga asfalt yotqizish kerak	5 415	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
2	1920600124	Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Kangli MFY xududida joylashgan №22 sonli urta maktabning 1 ga yer maydonidagi sport majmuasini ta'mirlash atrofini zamonaviy to'siqlar bilan o'rash, tomoshabinlar o'tirishga o'rindiqlar o'rnatish va aylana yugurish yo'lakchalarini qurish, zamonaviy kichik futbol maydonchasi, va Voleybol va Basketbol maydonlarini tashkil etish.	5 283	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'lim bo'limi

3	1920600090	Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Taraqqiyot MFY Yanginur ko'chasi 300 metr, , Oromgoh ko'chasi 1000metr, Ezgulik ko'chasi 400 metr, Sayilgoh ko'chasi 200 metr, Lolazor ko'chasi 400 metr, Muvozanat ko'chasi 200 metr asfalt qilish	3 396	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
<b>G'olib takliflarga jami ajratilgan mablag'</b>					<b>3 600,0</b>	x	x
<b>Taqsimlanmagan mablag'</b>					<b>239,8</b>	x	x